

# GLOBAL MOLIYA TIZIMINING TARKIBI SIFATIDA QAYTA SUG'URTA MEXANIZMINING O'RNI, ASOSIY TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403545>

Abdullayev Erkinjon A'zamovich  
"Farovon sug'urta" AJ bosh direktori

*Annotatsiya. Jahonda bo'layotgan siyosiy hamda iqtisodiy o'zgarishlar ma'lum darajada mahalliy sug'urta bozorlariga, jahon qayta sug'urta bozoriga ham jiddiy ta'sirlar ko'rsatmoqda. Global moliyaviy yo'qotishlar, urush, terroristik harakatlar, dunyoning qayta bo'linish siyosati, iqtisodiy cheklov va sanksiyalar global qayta sug'urta bozorida ham ma'lum darajada o'yin qoidalarini o'zgartirmoqda. Maqola doirasida qayta sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri, muammolari va asosiy tendensiyalari izohlangan.*

*Kalit so'zlar: qayta sug'urta bozori, sug'urta fondlari, moliyaviy sanksiyalar, qayta sug'urta tavakkalchiliklari*

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishini belgilovchi soha va tarmoqlar mavjud bo'lib, ushbu sohalar davlatning yalpi milliy mahsulotida yirik salmoqqa ega bo'ladi va ushbu sohalarning kelajakda barqaror rivojlanishida kutilmagan, bartaraf etishning imkoni bo'lmagan yoki murakkab bo'lgan tavakkalchiliklardan sug'urta va qayta sug'urta mexanizmlari orqali tavakkalchiliklarni oldini olish, bartaraf etish bilan bog'liq munosabatlar orqali tartibga soladi. Bu qanday tizim yoki mexanizm, global moliya tizimida tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi qanday me'yorlar belgilangan, tavakkalchiliklar xususiyati va ularning tahlili kim tomonidan amalga oshiriladi degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Bunga misol sifatida 2023-yil davomida tabiiy ofatlardan ko'rilgan iqtisodiy yo'qotishlar 280 mlrd.AQSh dollarini tashkil etib, ushbu global yo'qotishlarning qariyb 62 foizi sug'urtalanmagan. Turkiya va Suriyada yer silkinishlari eng katta falokatlardan bo'lib, 58 mingga yaqin odam bu dunyodan bevaqt ko'z yumishiga olib keldi. Zilzila natijasida 6,2 mlr.AQSh dollari miqdoridagi sug'urta zararlari baholangan bo'lsada, ushbu hududlarda sug'urta, qayta sug'urta xizmatlarining qamrovi pastligi qariyb 90 foiz zararlarni qoplanmasligiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, 2023-yilda 142 ta o'rtacha kattalikdagi sug'urtaviy ta'minotga ega halokatlar sodir bo'lib, har yili o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. O'rtacha kattalikdagi halokatlar sifatida 1-5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi yo'qotishlarga


olib keladigan hodisalarni shartli ravishda belgilashimiz mumkin. 1994-yildan buyon halokatlarni sodir bo'lish ko'lami o'rtacha 7,5 foiz o'sib kelmoqda.

Yil sayin tabiiy ofatlarning sodir bo'lish chastotasi va ko'lami ham ortib bormoqda. Bunga yana bir misol sifatida 2022-yildagi 60 mlrd.AQSh dollarini yo'qotilishga sabab bo'lgan "Lan" to'fonini keltirishimiz mumkin.

Yillik sug'urta zararlarining o'sishi asosan makroiqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. 2023-yilda kuchli konvektiv bo'ronlardan global sug'urta yo'qotishlar 60 mlrd.AQSH dollaridan ko'proqni tashkil etib, rekord darajadagi yuqori ko'rsatkichni qayd etib, ko'p yillar davomidagi o'sish tendensiyasi davom etdi. E'tiborli jihati shundaki, yo'qotishlarning katta qismi (qariyb 85 foiz) AQShda paydo bo'lgan bo'lsada sug'urta yo'qotishlar hozirda Yevropada AQShga qaraganda tezroq o'sib bormoqda va so'nggi uch yilning har birida 5 mlrd.AQSh dollardan oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu o'tgan yillarga qaraganda Yevropada kuchli konvektiv bo'ronlar monitoringini har tomonlama mukammal o'tkazishi, kuchli andarrayting siyosatini yuritishi zaruriy talab sifatida qaralmoqda.

AQShda kuchli konvektiv bo'ronlardan yo'qotishlarda turli xildagi makroiqtisodiy omillarni keltirishimiz mumkin (*asosiy taqsimot 1-rasmda keltirilgan*):

- Umumiy inflatsiya ko'rsatkichlari (INI);
- Ta'mirlash materiallar va qurilish xarajatlarining oshib borishi;
- Iqtisodiy o'sish urbanizatsiya
- Iqlim o'zgarishi
- va boshqalar.



### 1-rasm. Yillik sug'urta zararlarining o'sishining makroiqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liqlik grafiki<sup>1</sup>

Sug'urta zararlarining 8 foizga ortishiga ta'sirini bevosita 1-rasm orqali ko'rishimiz mumkin va bunda iqtisodiy o'sish urbanizatsiya jarayonlarining ortib borishi natijasida sug'urta va qayta sug'urtaga bo'lgan talabning ortishiga (qurilish montaj tavakkalchiliklarini sug'urtalash, moliyaviy tavakkalchiliklar, saqlash xarajatlari va sh.k.) olib kelmoqda va sug'urta zararlarining 8 foizlik o'sishida 2,3 foiz bilan iqtisodiy o'sish va urbanizatsiya yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rinlarda umumiy inflyatsiya darajasini oshishini ko'rishimiz mumkin (1-rasm). Bunga asosiy sabab sifatida jahon bozoridagi siyosiy notinchliklar, urush natijasida tovar va xizmatlar, resurslarning taqsimlanishida logistika xarajatlarini ortishiga olib kelmoqda.

Shu o'rinda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan cheklovlar, urush jarayonlari, davlatlarga qo'llanilayotgan sanksiyalar markaziy osiyo davlatlari sug'urta bozori va qayta sug'urta bozoriga faol tarzda integratsiya qilishga zamin yaratmoqda va yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bu ma'lum darajada ijobiy va salbiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Xorijdan qabul qilinayotgan tavakkalchiliklar ma'lum darajada davlatning pul-kredit siyosatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatsa, ikkinchi

<sup>1</sup> <https://www.swissre.com/dam/jcr:c9385357-6b86-486a-9ad8-78679037c10e/2024-03-sigma1-natural-catastrophes.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

tomoni ushbu tavakkalchiliklarini qabul qilishda to'g'ri andarrayting siyosati yo'lga qo'yilganmi, sodir bo'lish chastotasi yuqori bo'lgan tavakkalchiliklar O'zbekiston sug'urta bozorida akkumulyatsiya bo'lishiga sabab bo'lib qolmayabdimi degan savol tug'iladi.

*mln. so'm*

Ko'rsatkichlar	31.12.2022		31.12.2023		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	755 117	16%	1 522 557	20%	+101,6%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	940 087	20%	1 324 269	17%	+40,9%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	131	0%	131	0%	+0,4%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	468	0%	904	0%	+93,1%

## 2-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi<sup>2</sup>

Qayta sug'urtalashga berilgan tavakkalchiliklarning 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi 101,6 foizni tashkil etgan bo'lsa (1.5 trln.so'm) qayta sug'urtalashga qabul qilingan tavakkalchiliklar 40,9 foizga o'zgargan (1.3 trln.so'm) (2-rasm). O'rtadagi farq 200 mlrd.so'mni tashkil etayotgan bo'lsa, demak O'zbekiston sug'urta bozoriga kirib kelayotgan mukofotlar jozibadorlik, maqbullik tamoyillari

<sup>2</sup> <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlov berildi

Ko'rsatkichlar	31.12.2022		31.12.2023		O'zgarish, %
	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so'mda	yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan % da	
umumiy sug'urta sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	631 203 128	30%	627 646 892	27%	-0,6%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	172 734 645	8%	170 700 213	7%	-1,2%
hayotni sug'urta qilish sohasi					
Qayta sug'urtalashga berilgan	194 133	15%	47 500	0%	-75,5%
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	12 424 259	965%	3 529 576	22%	-71,6%

### 3-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash majburiyatlari hajmi<sup>3</sup>

emas balki siyosiy mojarolar ortidan davlatlarga qo'llanilayotgan sanksiyalardan aylanib o'tishga Markaziy Osiyo davlatlarining sug'urta bozorlari ma'lum darajada vositachilik qilmoqda.

Bu esa o'z navbatida jahon bozoridagi tabiiy va texnogen tavakkalchiliklarning ko'lamini ortib borayotganligi Markaziy Osiyo davlatlari fiskal va pul kredit siyosatiga kutilmagan yuklamalarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Bunga izoh sifatida 2023-yilda 1.3 trln.so'm evaziga qabul qilingan 170 trln.so'm majburiyatdan ham izohlasa bo'ladi.

Shunday ekan davlat ushbu holatda qanday ta'sirchan choralarni qo'llashi mumkin degan savolga quyidagi mulohazalarni keltirish mumkin:

- kiruvchi qayta sug'urta xizmatlarini amalga oshirayotgan sug'urta tashkilotlarida stress test o'tkazish;
- kapitallashuv darajasini muntazam oshirib borish;
- qayta sug'urta portfelida diversifikatsiya tamoyillarini qo'llash;
- qayta sug'urta xizmatlarini amalga oshirayotgan kompaniyalarni litsenziyalash faoliyatini yo'lga qo'yish (O'zbekistonda faqatgina qayta sug'urtalash kompaniyalari mavjud emas, balki ustav kapitalining minimal

<sup>3</sup> <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlov berildi

miqdorlari qayta sug'urta xizmatlarini oshirishga imkon bersa boshqa tomondan retrosessiya orqali kompaniyada sug'urtalangan tavakkalchiliklar retrosessiya orqali qayta sug'urtalanishi mumkin)

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, sug'urta va qayta sug'urta mukofotlarining yil sayin ortib borishi mamlakat yalpi milliy maxsulotini ortishiga xissa qo'shsada, davlat tomonidan prudensial choralarni qo'llamaslik mamlakat iqtisodiyotiga yangi chaqiriqlarni olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. [https://www.swissre.com/dam/jcr:c9385357-6b86-486a-9ad8-78679037c10e\\_/2024-03-sigma1-natural-catastrophes.pdf](https://www.swissre.com/dam/jcr:c9385357-6b86-486a-9ad8-78679037c10e_/2024-03-sigma1-natural-catastrophes.pdf)
2. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/globalashuv-sharoitida-xalqaro-sug-urta-bozori-va-sug-urta-operatsiyalarining-o-rni/viewer>